DOI: https://10.5281/zenodo.17664698

TEMURIYLAR DAVRI BUXORO VOHASI SOPOLSOZLIGI

Niyazova Mahsuma Ilyasovna
Buxoro Davlat Universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi
Kafedrasi dotsenti, t.f.n.
kurgolib@mail.ru

Shodmonova Latofat Izzat qizi
BuxDU 2-bosqich magistranti.
shodmonovalatofat@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Temuriylar davri Buxoro vohasida yasalgan sopol buyumlarning turli jihatlari xususan: sopollarning turlari, bezaklari, texnologik uslublari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Buxoro vohasi sopolsozlik uslublari Toshkent Samarqand sopolsozlik uslublari bilan solishtirilib nazariy tahlil qilingan. Tadqiqot ishida Mirzaahmedov.D.K, G.A.Pugachenkova, M.E.Massonlarning ilmiy izlanishlaridan shuningdek, rasmiy internet sahifalaridagi Temuriylar davri madaniyatiga oid ma'lumotlardan keng foydalanildi.

Kalit so'zlar: Temuriylar, Qoraxoniylar, lagan, moviy sir, shaffof sir, chinni, gardishsimon taglik, simmetrik va islimi naqshlar.

ABSTRACT

This article presents information about various aspects of ceramic products made in the Bukhara oasis during the Timurid period, in particular, the types of ceramics, their decorations, and technological styles. The pottery traditions of the Bukhara oasis are theoretically analyzed and compared with those of Tashkent and Samarkand. In the research process, the scientific works of J.K. Mirzaakhmedov, G.A. Pugachenkova, and M.E. Masson, as well as official online sources related to the culture of the Timurid period, were extensively used.

Keywords: Timurids, Karakhanids, aromatic vessel, lagan, blue glaze, transparent glaze, porcelain, rim-shaped base, symmetrical and Islamic motifs.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены сведения о различных аспектах гончарных изделий, изготовленных в Бухарском оазисе в эпоху Тимуридов, в частности о видах керамики, их орнаментах и технологических особенностях. Гончарные традиции Бухарского оазиса теоретически проанализированы и сопоставлены с ташкентскими и самаркандскими стилями. В исследовании широко использованы научные труды Д.К. Мирзаахмедова, Г.А. Пугаченковой, М.Э. Массона, а также официальные интернет-источники, посвящённые культуре эпохи Тимуридов.

Ключевые слова: Темуриды, Караханиды, ароматница, блюдо, синяя глазурь, прозрачная глазурь, фарфор, основание, симметричные и орнамент «ислими».

KIRISH

Markaziy Osiyo xalqlari tarixining XIV-XV asrlari qudratli Temuriylar saltanati davriga to‘g‘ri keladi. Bu saltanat o‘z qudrati hamda harbiy salohiyati bilan sharqning eng rivojlangan mamlakatlarining katta qismini o‘z hokimiyati ostida birlashtirgan edi. Egallangan hududlardan ulkan boyliklar, olim-u ulamolar bilan bir qatorda o‘z zamonasining ko‘zga ko‘ringan hunarmand ustalari ham mamlakat markaziy hududlariga ko‘chirib olib kelingan. Bu esa o‘z navbatida mamlakat poytaxti bo‘lmish Samarqand hamda Buxoro, Toshkent, Shahrisabz kabi yirik shaharlarda hunarmandchilikning turli sohalarini keng miqyosida rivojlanishi uchun xizmat qildi. Bunday yuksalish xalq amaliy san’atining eng ommaviy turi-sopolsozlikda ham o‘z aksini topdi.

TADQIQOT METODLARI

Ushbu tadqiqot ishida arxeolog olimlarning ilmiy ishlaridan foydalangan holda tarixiy-tahliliy metodlardan keng foydalanildi. Asosiy ma’lumotlar Mirzaahmedov.D.K tomonidan olib borilgan qazilma natijalariga asoslangan. Tahlil jarayonida buyumlarning morfologik belgilari, xom ashyo sifati, sir turlari, bezak naqshlari hamda ishlab chiqarish texnologiyasi o‘rganildi. Qo‘shimcha ravishda Samarqand hamda Toshkentdan topilgan Temuriylar davri sopol buyumlari bilan taqqoslandi.

NATIJALAR

O‘rganilgan manbalar asosida shuni aytish mumkinki Buxoro vohasida Temuriylar davrida turli kulolchilik markazlari faoliyat yuritgan. Ular o‘zlarining katta-katta kulolchilik ustaxonalariga ega bo‘lganlar. Mirzaahmedov.D.K qayd etganidek, bu davrda sopol idishlarning yashil, moviy va sarg‘ish glazurli turlari, shuningdek angob bilan bezatilgan geometrik naqshli idishlar keng tarqalgan. Buxoro

vohasi kulollari asosan mahalliy loy va qum aralashmasidan foydalanganlar. Sopol idishlar orasida xum, lagan, kosa piyola kabi kundalik maishiy buyumlar ko‘p uchraydi. Naqshlarda asosan o‘zaro uyg‘unlashgan tabiat manzaralari: gul, barglar, o‘simlik va parrandalar tasvirlangan. Ayrim sopollarda esa arab yozuvlari bilan ma’lum bir oyatlar yokida hikmatli so‘zlar bitilgan[1].

Temuriylar davri sopollari yasalish texnikasi hamda bezak uslublari bilan o‘zidan oldingi an’analardan ajralib turadi. X–XII asrlar keramikasida ustun bo‘lgan **epigrafik bezaklar** va **stilizatsiyalashgan hayvonot tasvirlari** o‘rnini endilikda **qushlar va o‘simliklarning hayotiyroq** tasvirlari egallaydi. Ranglar uyg‘unligi ham o‘zgaradi: ilgari oq, to‘q jigarrang va qizil ranglar ustiga sarg‘ish-yashil shaffof sir bilan bo‘yalgan idishlar endi **moviy-oq** rangli yoki **moviy sir ostidagi qora siluetli** naqshlar bilan bezatiladi[2].

Temuriylar davri Buxoro vohasi sopolsozligi namunalari 1970-yillarda Buxoro birinchi shahristonida, Mir Arab madrasasining shimoliy qismida olib borilgan arxeologik qazishmalar davomida topilgan. Mazkur buyumlar Dj.K. Mirzaahmedov tomonidan o‘rganib chiqilgan. Bu kompleks XV–XVI asrlar qurilish qatlamlariga tegishli bo‘lib, o‘sha davrda uy-ro‘zg‘or buyumlari sifatida ishlatilgan ovqatlanish idishlari va maxsus vazifali buyumlar haqida aniq tasavvur beradi. Kompleks quyidagi buyumlarni o‘z ichiga olgan: ikki kosa, bir piyola, bir likopcha (tabaq) va bir aromatnitsa (xushbo‘y suyuqlik idishi). Kosalarning tag qismi halqasimon, tubi yarimsharsimon shaklda, devorlari yuqoriga tomon biroz kengayib boradi. Ular oq angob bilan qoplangan va shaffof sir butun ichki hamda tashqi qismning bir bo‘lagini qoplagan. Ichki yuzasida qora, havorang va ko‘k bo‘yoqlarda ishlangan polixrom bezak mavjud. Piyolaning tagi halqasimon, devorlari yarimsharsimon, chetlari esa biroz o‘tkir egilgan. Uning ichki va tashqi sirtlari shaffof, rangsiz sir bilan to‘liq qoplangan. Aromatnitsa esa nafis shaklda, nozik oyoqchali idish bo‘lib, uning yuqori qismi 0,5 sm ichkariga bukilgan va markazida no‘xatsimon teshik mavjud. Shaffof sir ostida kufiy yozuv bilan yozilgan bezak idishning tanasini o‘rab turadi, qolgan qismi esa kobalt bo‘yoqli o‘simliksimon va geometrik shakllar bilan bezatilgan[3]. Mazkur hududdan topilgan barcha buyumlarda umumiy jihat ularning rangsiz shaffof sir bilan qoplanganligi hamda bezatishda havorang, jigarrang va ko‘k ranglari uyg‘unligidan foydalanilganligida. Kosa, piyola, lagan barchasi halqasimon nozik gardish ustiga

[1] МИРЗААХМЕДОВ.Д.К. ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ПОЛИВНАЯ КЕРАМИКА БУХАРЫ ЭПОХИ ТИМУРИДОВ .ЦИВИЛИЗАЦИИ И КУЛЬТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ЕДИНСТВЕ И МНОГООБРАЗИИ Материалы Международной конференции Самарканд, 7-8 сентября 2009 г.

[2] Сурайё Алиева. Темуридская керамика: сложение нового стиля. . San’at • 01/04/2000 • Выпуск №2 • 1420

[3]МИРЗААХМЕДОВ.Д.К.ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ПОЛИВНАЯ КЕРАМИКА БУХАРЫ ЭПОХИ ТИМУРИДОВ .ЦИВИЛИЗАЦИИ И КУЛЬТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ЕДИНСТВЕ И МНОГООБРАЗИИ Материалы Международной конференции Самарканд, 7-8 сентября 2009 г.

o‘rnatilgan bo‘lib idishlarning chetlari tashqari tomonga biroz mayinroq shaklda chiqarib ishlangan.



1-rasm

Yuqoridagi rasmda Buxoro shahrida Abdullaxon Timi janubidagi arxeologik tadqiqotlar davomida topilgan sopollar keltirilgan[1]. Bu sopol namunalarining tuzilishi shuni ko‘rsatadiki Buxoro vohasida Temuriylar davri (XIV-XVI) da ham sopol buyumlar ostida aylana gardishli taglik mavjud bo‘lgan. Faqat gardish Somoniylar yoxud Qoraxoniylar davri sopollariga nisbattan sayqallanib nozik va nafis ko‘rinish kasb etgan. Samarqand va Toshkent sopolsozligidan farqli o‘laroq Buxoroda idishlarning tashqi tomonga biroz chiqarib ishlangan chetlari biroz qalinroq bo‘lgan.Sopol buyumlarning turli xildagi naqshlar bilan bezatilishi va ranglar masalasiga kelganda albatta Xitoy chinnisining ta’siri o‘laroq bezaklarda o‘simliksimon naqshlar ko‘p uchraydi. Ranglar borasida ko‘k va havorang ustunligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Sopol idishlarning aksariyatida markaziy qismda nozik

[1] МИРЗААХМЕДОВ.Д.К. РЕЗУЛЬТАТЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ К ЮГУ ОТ ТИМА АБДУЛЛАХАНА В Г. БУХАРЕ. Археологические исследования в Узбекистане-2003 год Выпуск 4.

aylana tasvirlangan va uning atrofi o‘simliksimon naqshlar, barglar va gullar bilan bezatilgan.

2-rasm

Mazkur keramik asar ayni Temuriylar davri Xitoy chinni buyumi[1]. Bu surat orqali shu narsa ma’lumki Markaziy Osiyo sopolsozlari o‘z ishlarida Xitoy buyumlaridan ham naqshlar va bezaklarda ham ranglar texnologiyasida namuna olishga harakat qilganlar.

3-rasm

[1]МАРКАЗИЙ ОСИЁ САНЪАТИ ФИЦВИЛЬЯМ МУЗЕЙИ ТЎПЛАМЛАРИДА. SILK ROAD MEDIA TOSHKENT-2021

3-rasmdagi sopol idish XIV asr Samarqand sopolsozligi namunasi bo‘lib hisoblanadi[1]. Bu sopolda ham Xitoy bezak va rang uslubining ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. Idish o‘rtasida o‘simlik tasviri va uning ikki yonida qush tasviri tushirilgan. Mazkur idish Samarqanddan topilgan taxminan 1370-1450-yillarga mansubligi qayd etilgan. Sopol shaffof sir ostiga feruza va qora bo‘yoqli rasmlar bilan bezatilgan.

MUHOKAMA

Temuriylar davrida kulolchilik umuman olganda madaniy hayotning rivojiga mamlakatdagi tinchlik va iqtisodiy barqarorlik asos bo‘lib xizmat qilgan. Bundan tashqari hukmdorlarning madaniy hayotga katta e’tibor bilan yondashuvi ham soha rivojini ta’minlagan. Temuriylar davri kulolchiligi ko‘p jihatdan Xitoydagi ko‘k va oq chinni ishlab chiqarish tarixi bilan bog‘liq. Sinxua (so‘zma-so‘z tarjima qilganda- oq va ko‘k rangli mahsulotlar) XIV asrning birinchi yarmidan boshlab shimoliy Szyansi provinsiyasida ishlab chiqarilib ko‘p miqdorda O‘rta Osiyoga eksport qilingan. Mahalliy kulollar esa ulardan andoza sifatida foydalanganlar. Buxoroda kulollar saroy, davlat va fuqarolar buyurtmalari asosida faoliyat olib borgan. Bu esa sopollarning marosim va bazmlar uchun, kundalik maishiy hayot uchun hamda maxsus sovg‘alar tariqasida farqlanishiga olib kelgan. Shuningdek, arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, bu davrda sopollar faqat amaliy maqsadda emas, balki marosimiy va diniy ehtiyojlar uchun ham ishlatilgan. Buxoro ustalari ishlab chiqargan ayrim idishlarda simmetrik naqshlar va islomiy ramzlar uyg‘unlashgan bo‘lib, ular davr dunyoqarashini aks ettiradi.

XULOSA

Temuriylar davrida Buxoro vohasida kulolchilik san’ati yuksak bosqichga ko‘tarilgan. Bu davrda yaratilgan sopol buyumlar o‘zining badiiy qiymati, bezak uslubi va texnik takomilligi bilan ajralib turadi. Buxoro kulollari o‘z davrining eng ilg‘or texnologiyalaridan foydalangan holda, asrlar davomida qadrlanib kelayotgan san’at namunalari yaratganlar. Mirzaahmedov.D.K tadqiqotlari bu merosni o‘rganishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda ushbu buyumlar Buxoro va Toshkent muzeylarida saqlanmoqda va Temuriylar davri madaniyatining yorqin namunasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. МИРЗААХМЕДОВ.Д.К. ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ПОЛИВНАЯ КЕРАМИКА БУХАРЫ ЭПОХИ ТИМУРИДОВ .ЦИВИЛИЗАЦИИ И КУЛЬТУРЫ

[1] МАРКАЗИЙ ОСИЁ САНЪАТИ ФИЦВИЛЬЯМ МУЗЕЙИ ТЎПЛАМЛАРИДА. SILK ROAD MEDIA TOSHKENT-2021

ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ЕДИНСТВЕ И МНОГООБРАЗИИ Материалы Международной конференции Самарканд, 7-8 сентября 2009 г.

2. МИРЗААХМЕДОВ.Д.К. РЕЗУЛЬТАТЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ К ЮГУ ОТ ТИМА АБДУЛЛАХАНА В Г. БУХАРЕ. Археологические исследования в Узбекистане-2003 год Выпуск 4.

3. МАРКАЗИЙ ОСИЁ САНЪАТИ ФИЦВИЛЬЯМ МУЗЕЙИ ТЎПЛАМЛАРИДА. SILK ROAD MEDIA TOSHKENT-2021

4. Сурайё Алиева. Темуридская керамика: сложение нового стиля. . San’at • 01/04/2000 • Выпуск №2 • 1420

5. Мирзаахмедов Д.К. Новые позднесредневековые археологические комплексы по материалам Бухары // Древняя и средневековая культура Бухарского оазиса. Самарканд, 2006.